

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

VOLUME I, ISSUE 10



JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



IMFAKTOR

OCTOBER | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-10>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6** та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ALLAMOV Shavkat Sharipovich

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
“Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrası o‘qituvchisi”
(Xorazm viloyati, Urganch shahri)

YAQUBOVA Nodira Ruslanovna

Urganch Innovatsion Universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti” o‘qituvchisi
va Urganch tumanidagi 24-sonli maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
(Xorazm viloyati, Urganch shahri)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10026829>

BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN VA MATEMATIKAGA OID SHE‘RLARDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILAR ZEHNINI MUSTAHKAMLASH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi, ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantirishi haqida fikrlar bayon qilingan. O‘quv motivlari ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutishi ko‘rsatilgan. Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda ta’limning samarali bo‘lishiga, o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam berishi, ya’ni didaktik o‘yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o‘quvchilarning qiziqishlari ortishi haqida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinlar, matematik she‘rlar, o‘yin motivlari, ta’lim jarayoni, didaktik topshiriq, amaliy ko‘nikma, ijodiy fikrlash, aqliy faoliyat, nazariy bilim, pedagogik texnologiyalar.

ИЗ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ И ИСПОЛЬЗУЯ МАТЕМАТИЧЕСКИЕ СТИХИ УКРЕПЛЕНИЕ СОЗНАНИЯ УЧАЩИХСЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены идеи о том, что дидактические игры повышают эффективность учебного процесса, развивают активность учащихся и учебную мотивацию в учебном процессе. Показано, что мотивы обучения играют важную роль в организации образовательного процесса на основе педагогических технологий. Дидактические игры оказывают большое содействие эффективности обучения в начальных классах, успешному руководству учебной деятельностью учащихся, то есть с помощью дидактических игр легко усваиваются теоретические знания, повышается интерес учащихся.

Ключевые слова: дидактические игры, математические стихотворения, игровые мотивы, учебный процесс, дидактическое задание, практические навыки, творческое мышление, мыслительная деятельность, теоретические знания, педагогические технологии.

FROM DIDACTIC GAMES IN ELEMENTARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS AND USING POEMS ON MATHEMATICS STRENGTHENING STUDENTS ' MINDS

ANNOTATION

In this article, the ideas that didactic games increase the effectiveness of the educational process, develop students' activity and study motivation in the educational process are presented. It is shown that learning motives play an important role in organizing the educational process based on pedagogical technologies. Didactic games are of great help to the effectiveness of education in primary classes, to the successful management of students' educational activities, that is, theoretical knowledge is easily acquired by means of didactic games, and the interest of students increases. shown.

Key words: didactic games, mathematical poems, game motives, educational process, didactic assignment, practical skills, creative thinking, mental activity, theoretical knowledge, pedagogical technologies.

“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi.” [1]...

Davlatimiz tamonidan ta'lim sohasiga, o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlari, tafakkurini rivojlantirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari, amaliy ko'nikma va malakalarini hosil etishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv-tarbiya jarayonining barcha imkoniyatlari, pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari, didaktik vosita va usullaridan samarali foydalanish zarurati davlat ta'lim siyosatida muhim o'rin tutadi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri o'quv-tarbiya jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, ijobiy o'quv motivlarini hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatiga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning ro'li beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'quv motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslari uchun juda ko'plab didaktik o'yinlar yaratilgan. Matematikadan sanoqqa doir ba'zi didaktik o'yinlarni quyidagi guruhlariga tasniflash mumkin.

1-guruh. Birinchi o'nlik doirasidagi son tarkibi malakalarini mustahkamlovchi o'yinlar: “Buyumlarni 10 gacha sanash”, “To'g'ri va teskari sanash”, “Ikkinchi qo'shish va ayirish”.

2-guruh. Son tarkibini mustahkamlovchi o'yinlar: “4 soni va raqami”, “Teatr”, “Nima o'zgardi?”. “Narvoncha”, “Zanjircha”.

3-*guruh*. O‘nlikdan o‘tib hisoblash malakalarini mustahkamlovchi o‘yinlar: “Ketgan kim?” va h.k.

4-*guruh*. Bir necha birlikka kamaytirish va orttirish, masalasini yechish malakalarini mustahkalovchi o‘yinlar: “Topchi, qancha?” va h.k.

1-*guruh bo‘yicha* “Buyumlarni 10 gacha sanash” ga doir didaktik o‘yin: **“Jimjitlik”**.

Didaktik topshiriq: bolalarning oddiy sanoq haqidagi tushunchalarni aniqlash va mustahkamlash.

O‘yin topshirig‘i: aniq buyumlarni “hayolda” sanab, kerakli sonni barmoqlar bilan ko‘rsatish.

O‘yinning borishi: o‘qituvchi boshlovchilik vazifasini bajaradi.

O‘qituvchi: -Bolalar, “Jimjitlik” o‘yini o‘ynaymiz. Men sizlarga hozir har xil narsalarni ko‘rsataman. Siz ularning sonini topishingiz kerak bo‘ladi. Bolalar birdan gapga tushib ketadilar.

- Yo‘q bolalar. Javob qaytarishdan oldin qo‘l ko‘tarish kerak.

O‘qituvchi bolalarga doira va cho‘plarni sanatadi.

- Endi men sizlarga narsalarni ko‘rsataman. Sizlar ovoz chiqarmasdan sanab, qancha bo‘lganini barmoqlaringiz bilan ko‘rsatasiz.

O‘qituvchi 4 ta qo‘g‘irchoqni ko‘rsatganda bolalarning hammasi 4 ta barmog‘ini ko‘rsatadi. Sinfda jimjitlik. Bolalarning butun diqqat-e‘tibori topshiriqni bajarishga qaratilgan [3].

O‘qituvchi: - Barakalla hammangiz to‘g‘ri hisobladigiz. Endi men sanoq cho‘pni bir qo‘limdan ikkinchi qo‘limga olaman, sizlar esa ularni ovoz chiqarmasdan sanang, keyin menga qancha bo‘lganini ko‘rsatasiz. Bolalar o‘qituvchining harakatlarini kuzatib sanashadi va 10 ta barmog‘ini ko‘rsatishadi.

O‘qituvchi: - Endi kvadratlarni sananglar, - deydida, taxtachaga ketma-ket kvadratlarni qo‘yadi.

Bolalar sanashadi va 6 ta barmog‘ini ko‘rsatishadi.

Bu o‘rinda bolalarning birinchi o‘nlik haqidagi bilimlarining taxminiy darajasi aniqlanadi, qancha narsa ko‘rsatilsa, o‘shani barmoq bilan sanab ko‘rsatish malakasi mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, ularda ovoz chiqarmay, “Xayolda” sanash ko‘nikmalari ham shakllanadi. Bolalar aslida sanashga ovoz chiqarib takrorlamasdan birdaniga erisha olmaydilar, jim o‘tirishni talab etuvchi o‘yin qoidasigina ularni bunga majbur qiladi va ular ovoz chiqarmay sanaydilar. Bunday qilishning qulay tomoni shundaki, bolalarning butun diqqat e‘tibori faqat topshiriqni bajarish bilan band bo‘ladi. Keyingi darsda o‘yin shartlari yana ham murakkablashtiriladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarda tez harakat qilish malakasi mustahkamlanadi. Shu bilan birga topshiriqni kim tez, kim esa sekin bajarayotganini aniqlab olish imkoni tug‘iladi.

“To‘g‘ri va teskari sanash” doir didaktik o‘yin:

“Ko‘rganni eslab qolish”

Didaktik topshiriq: qo‘shib sanash yo‘li bilan geometrik shakllar miqdori bilan bog‘liq ravishda son qatorini tuzish.

O‘yin topshirig‘i: o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan namunaga 3-4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometrik shakllarining soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o‘zining daftariga to‘g‘ri yozish.

Foydalaniladigan buyumlar:

- 6 ta qizil doiracha va 6 ta ko‘k kvadrat solingan individual konvert;

- o‘rtasidan qizil chiziq tortilgan qalin oq qog‘oz;

- o‘qituvchining qo‘lida geometrik shakllar yopishtirilgan namunalar.

Shunday qilib, o‘yin paytida bolalar sanashni, shakllarni bir chiziqqa joylashtirishni ham bilib oladilar. Buning natijasida shakl nomlari mustahkamlanadi va o‘yin yaxshi o‘zlashtiriladi. O‘qituvchi esa o‘yin natijasida bolalar xotirasi qanchalik rivojlanganligini aniqlab oladi.

“GEOMETRIK SHAKLLARNI O‘RGANAMIZ”

nomli didaktik o‘yin

Maktab ta’limi jarayonida o‘quvchilarda materialni taqqoslash, umumlashtira olish, guruhlashni o‘rganish malakalari shakllana boradi. Bolalarning tasniflashni o‘rganishlari turli aqliy operatsiyalarni muvaffaqiyatli boshqarishlariga yordam beradi. Bolalarni fikrlashga o‘rgatish, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun guruhda ko‘plab rivojlantiradigan, didaktik o‘yinlar bor. Ularni o‘ynashda bola bir necha sabablarga turli belgilari bo‘yicha-rangi, o‘lchami va shakliga ko‘ra taqqoslash usulini qo‘llaydi:

1. *O‘yinning maqsadi:* kichik kartochkalar orasidan katta kartochkalardagi kabi geometrik shakllarni topish.



2. *O‘yinning maqsadi:* katta kartochkalardagi bo‘sh o‘rinlarni shakllar yordamida yopishni o‘rganish. Bunda kartochkalarining rangiga e’tibor berish shart.



3. *O‘yinning maqsadi:* Katta kartochkadagi shakllar konturidan mo‘ljil olib, unga mos shakllarni toping joylash. Bunda shakllarning burchaklari bo‘yicha ham mo‘ljil olish mumkin.



Endi matematika darslarida she'rlardan foydalanishni ko'rib chiqsak :

Nuqtajon qo'shig'i
 Nuqtajonu-nuqtajon,
 Fazilating bir jahon.
 Kimki bilib olsa gar,
 Sanab berar tez oson.
 Chizganimda chizmaning

Xislatini yechasan.
 Qiyin shakl yasashda,
 Topginimcha qochasan.
 Markaz bo'lib gohida,
 Har yonga nur sochasan.

Naqarot:

Ko'paytirish , bo'lishni,
 Senla qildim ifoda.
 Barcha siring bilishga
 Kerak ekan iroda.
 Bahtimizga bo'l omon,
 Yerda, suvda, havoda.

Chiziq

Qilsa meni kim havas,
 Ikkita nuqta olsa bas.
 Bir qarasa egriman,
 Bir qarasa to'g'riman,
 Bir boqsa qiziq-chiziq.

Birlashtirib nuqtani,
 Chizsangiz agar meni.
 Bir qarasa yopiqman,
 Bir qarasa ochiqman.
 Bir boqsa qiziq-chiziq.

Dars yuqorida ko'rsatilgan matematik she'rlar yordamida yanada mustahkamlanadi va o'quvchilarga tushinarli tarzda yetkaziladi.

2-sinf matematika darsida o'rgatiladigan

“Geometrik shakllar. Kvadrat. Uchburchak. Doira.” mavzusi

Ushbu mavzu o'rgatilganda o'quvchilarga quyidagi tartibdagi she'rlar o'rgatilsa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.



Uchburchakdan uchta ol
 Qutichaga sanab sol,
 To'rtburchakdan to'rtta ol
 Qushga bergin bemalol

Uchburchaklar she'ri

Uchburchak erur nomim,
Mahkam uchta tomonim.
Uch yog'da posbon uchim ,
Ko'p ishga yetar kuchim.

Dars yuqorida ko'rsatilgan didaktik o'yinlar yordamida yanada mustahkamlanadi.

Bulardan tashqari bir nechta darslarda dam olish daqiqasi sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan she'rlarni keltirib o'tamiz :

Bir shoxdadur to'rtta qush
Bu shoxdadur to'rtta qush
Uchib ketsa to'rtta qush
Shoxda qoldi nechta qush?

A'zam tutdi to'rt sazan,
Sulton esa uch cho'rtan
Karim tutdi bir laqqa
Nechta chiqdi qarmoqqa?

Yuqorida keltirilgan va shunga o'xshgan she'rlardan dars paytida foydalanish va uni o'quvchilarga yodlatish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;
- O'quvchilarni xotira qobilyatini mustahkamlash va rivojlantirish;
- O'quvchilarni darsga diqqat bilan e'tibor qaratish va h.k.

Dars paytida didaktik o'yinlar va matematik she'rlardan foydalanish orqali sinfdagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yaxshi rivojlantirish mumkin va sinfning 100 foizgacha darsda faol qatnashishlariga erishish mumkin [4].

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoning samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. o'quv motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi ta'lim jarayonida eshitib, ko'ribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini o'rganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini ta'minlashi zarur. O'qituvchi faqat o'qitibgina qolmay, o'quvchini mustaqil mutolaa qilish orqali ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Ta'lim jarayonida ijodkorlik, o'qituvchining bosh maqsadi bo'lmog'i lozim. Zamonaviy ta'lim nazariyasi o'qituvchini rahbari sifatida baholaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi jarayonga to'g'ri rahbarlik qilishi uchun chuqur bilimga, yuksak kasb mahoratiga ega bo'lishi lozim.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni marda va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.” Toshkent-2017.,188-189-bet.
2. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M.” Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun matematika darsligi” - Toshkent, “Turon – Iqbol”, 2015-y.
3. Xalillayev A., Xudoynazarov E., Davletov E. “4-sinflarda masala yechishga o‘rgatish metodikasi”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma,- Toshkent., 2018 –y.
4. Xudayberganov Sh.Sh., Abdullayeva Sh.Sh. “Boshlang‘ich sinf matematika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish va ularning ahamiyati”. Материалы научно-практического семинара. Ташкент-2018, стр.239-243.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz